

TRAVMATIK TOKSIKOZDA PATOLOGIK O'ZGARISHLAR VA UNI DAVOLASH

Sharapov Ilhamberdi Kamalovich

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Umumiy xirurgiya kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ko'pincha oyoq yumshoq to'qimasining biror katta qismi uzoq vaqt qisilib qolganda to'qima va butun organizmda o'ziga xos o'zgarishlar yuz beradi. Birinchi marta uning klinikasi Italiyada yer qimirlashda ro'y bergan fojiaga asoslangan. Travmatik toksikoz o'pirilish, yer qimirlash, bombardimon qilish, temir yo'l halokatlari va boshqalar vaqtida kuzatiladi.

Kalit so'zlar: dekompressiya, ko'karish, terida yorilish, qonsizlanish, nekrozlanish, gipotoniya, diurez, gemodializ.

Og'ir ezilishlarning mahalliy belgilari dekompressiyadan keyin, ya'ni ezilgan joyni bosib turgan yuk olib tashlagandan so'ng namoyon bo'ladi. Birinchi soatning o'zidayoq qo'l-oyoq hajmi tez kattalasha boshlaydi, to'qimalar ushlab ko'rilganda su yuqlik yuborilgandek seziladi. 24 soat ichida shish haddan tashqari kattalashadi. Qo'l-oyoq qotib oqaradi, rangsizlanib, ko'kimtir dog'lar paydo bo'ladi, sezish qobiliyati yo'qolib, tomir urishi aniqlanmaydi, harakatlar kamayadi. Borib-borib terida qo'ng'ir dog' va pufaklar (har xil kattalikda) yuzaga kelib, ular seroz va gemorragik suyuqliklar bilan to'lgan bo'ladi. Tirnoqlar ko'karib, muzday bo'lib qoladi, teri sathida yorilishlar, momataloq va jarohatlar paydo bo'ladi. Bu patologiyada suyak sinishlari ham vujudga kelishi mumkin.

Zararlangan qo'l-oyoq mushaklari qonsiz, kulrang nekrozlangan bo'ladi, shish va to'qimalarda qon bilan immobilizatsiya kuzatiladi. Vena va arteriya tomirlarida tromboz, to'qimalarning hamma qavatlarida mexanik tarakterdagi zararlanish namoyon bo'ladi. Shish kattalashishi bilan quyuqlashadi va travmatik shok belgilari paydo bo'ladi. Ezilgan to'qimalardan va interstitsial kenglikdan plazma yo'qoladi, gematokrit tez balandlashadi,

gemoglobin, eritrotsitlar soni ko'payadi, to'qima chirishi natijasida toksik moddalar - polipeptidlar, fosfor, kaliy, gemoglobin organizmga so'riladi. Buyraklarning hajmi kattalashadi, to'qimasining bir qismi yot to'qimaga aylanadi, buyrak naychalarining bir qismi o'ladi (nekroz), mushak pigmenti (mioglobin), oqsil moddalar o'lishi va qon quyilishi kuzatiladi. Shunday qilib, mushak to'qimalarida keng nekrozlar yoki og'ir distrofik o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bu holat to'qimalarning uzoq ezilish sindromi, travmatik toksikoz (N.N.Elanskiy) yoki urush sindromi deb yuritiladi.

Umumiy belgilari uch bosqichdan iborat. Erta (boshlang'ich), oraliq va kechki, ularning har biri o'ziga xos belgilarga ega. Birinchi soatlarda bemorning ahvoli yaxshidek ko'rinadi va u diagnostik, davolashda turli xatolarga sabab bo'ladi. Shikastlangan sohada kuchli og'riq, kam harakatlik, darmonsizlik sezadi. Ko'ngli ayniydi, tomir urishi tezlashadi, arterial bosimi kamayadi, unda qo'zg'alish eyforiyasi kuzatiladi. Shish kattalashishi bilan umumiy ahvoli og'irlashadi, behol, beparvo bo'ladi bu sharoitda travmatik shok belgisi namoyon bo'ladi. Siydik kam ajraydi, rangi o'zgaradi, oqsil paydo bo'ladi. Travmatik shok belgilari bo'lgan boshlang'ich bosqichi 1-2 kunga cho'ziladi. Uning asosida mushaklar nekrozi va mioglobin chiqishi, buyrak naychalarining berkilishi kuzatiladi. Bir necha kun ichida o'tkir buyrak yetishmovchiligi va sarg'ayib ketish kuzatiladi. Bu o'tkir jigar-buyrak yetishmovchiligini yuzaga keltiradi, yurak-tomir yetishmovchiligi kuchayadi. Bu bosqich oraliq bosqichga mansub bo'lib, uning negizida to'qimalar chirishi yotadi. Kechki bosqich jigar va buyrak faoliyatining tiklanishi bilan ifodalanib, to'qimalar nekrozi, yiringli-septik holat oldingi safga chiqadi. Klinik formasi uch xil kechadi. Ular: Yengil formasi (qo'l-oyoqning 4 soatdan oshmasdan bosilishi); o'rtacha (qo'l-oyoq, yoki tananing boshqa sohasini bosilib turishi 6 soatdan oshmaganda, unda buyrak faoliyati buzilishi va plazma yo'qotish kuchsiz bo'ladi; og'ir (qo'l-oyoqning 8 soat ichida ezilib turishi). Buyrak yetishmovchiligi avjga chiqqan, plazmaning ko'p yo'qotilishi va qonning quyuqlashishi, o'ta og'ir - ikki qo'l-oyoqni 6 soatdan uzoqroq ezilishini, 3 kun ichida o'tkir buyrak yetishmovchiligining avj olishi va qon aylanishining buzilishi bilan ko'ngilsiz voqea ro'y beradi.

Davolash. Ezilgan qo'l-oyoqni bosib turgan yuk olingach, uni qattiq bog'lam bilan bog'lash, taxtakachlash, ba'zida jgut qo'yish kerak. Zararlangan sohaga muz qo'yiladi, ezilgan sohani yuqorisidan aylanma qilib maxsus apparatlar bilan sovutiladi, novokain blokadasi bajariladi. Agar shish kattalashib, ishemiya va ezilish belgilari yo'qolmasa, to'qimalarga yengillik berish uchun keng fassiya ochiladi, nekrektomiya yoki amputatsiya bajariladi. Giperbarik oksigenatsiya qilinadi. Bu harakatlar umumiy davolash bilan birga olib boriladi. Bemorga narkotik, antigistamin preparatlar (promedol, dimedrol) yuboriladi, poliglyukin, reopoliglyukin qo'yiladi. Gemodinamika buzilsa noradrenalin, mezaton, dopamin, dobutamin, qon va plazma, sintetik qon o'rnini bosuvchi moddalar venaga yuboriladi. Intoksikatsiya davom etaversa, diurez tezlashtiriladi, 3-4 litrdan ortiq suyuqlik tomir ichiga yuboriladi (1/3 xlorid natriyning izotonik eritmasi; 1/3 5 foiz glyukoza eritmasi yoki laktosol va 1/3 plazma qon o'rnini bosuvchi suyuqlik). Ular qatorida 2-5 foiz natriy gidrokarbonat eritmasi (400-500 l), vitaminlar, antibiotiklar, tomirni kengaytiruvchi moddalarni qo'llash mumkin. Diurezni aniq bilish uchun siydik qopiga kateter qo'yiladi, Chiqayotgan siydik soatiga 1,5 ml/kg bo'lishi kerak. Agar anuriya vujudga kelsa, bemorda sun'iy buyrak (gemodializ) gemosorbsiya apparatlari qo'llaniladi.

Istalgan sababli tufayli travmatik shok o'limga olib kelishi mumkin. Erta bosqichdagi diagnostika hamda tezkor davolash yordami o'lim va asoratlarni sezilarli miqdorda kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдукадирова, Д. Т., Абдукадиров, У., & Жабборов, А. (2022). ДИАБЕТИЧЕСКАЯ ПОЛИНЕЙРОПАТИЯ: ПУТИ ПОЛНОЦЕННОЙ КОРРЕКЦИИ НЕВРОЛОГИЧЕСКОГО ДЕФИЦИТА. Journal of new century innovations, 18(3), 316-319.
2. ANVAROVA, Z. (2024). TIBBIYOTDA BOLALAR BO 'G 'IMLARINING ANATOMIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ETIOLOGIYASI VA

- PATOGENEZINI O 'QITISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV KLINIKASI VA TASNIFI. News of the NUUz, 1(1.9), 50-53.
3. ANVAROVA, Z. (2024). TIBBIY O 'QITISHDA REVMATIZM KASALLIGI VA UNI DAVOLASHNING METODIK USULLARI. News of the NUUz, 1(1.9. 1), 77-79.
 4. Jabborova, M. A., & Shokirova, S. M. (2022). PLASENTA YETISHMOVCHILIGI KASALLIGI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(3), 291-294.
 5. Бахромовна, М.С. (2025). Острый перикардит и его диагностика. Место Пшислосьци , 56 , 294-297.
 6. Мухидинова, Ш. Б. ГИПЕРЭНДЕМИЧЕСКИЕ ОЧАГИ ГЕЛЬМИНТОЗОВ И ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИИ.
 7. Bahromovna, M. S. (2024). DIAGNOSTIC TESTS OF CHRONIC CONSTRICTIVE PERICARDITIS. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 84-87).
 8. Solijon o'g'li, A. S. (2024). Antibiotic Therapy for Severe Infections in Infants and Children. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 6, 21-24.
 9. Solijon o'g'li, A. S. (2024, May). Measles in Children, its Symptoms and Treatment. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (pp. 102-106).
 10. Solijon o'g'li, A. S. (2024). Infectious Diseases in Children. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(5), 289-393.
 11. Solijon o'g'li, A. S. (2024, May). Diarrhoea in Children, Causes and Symptoms. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 7, pp. 12-15).
 12. Aleksandrovna, A. E. (2023). THE MAIN ASPECTS OF RESPIRATORY REHABILITATION OF THE CONSEQUENCES OF THE NEW CORONAVIRUS

- INFECTION IN CHILDREN WITH BRONCHOPULMONARY DISEASES. World Bulletin of Social Sciences, 18, 81-83.
13. Alexandrovna, A. E. (2023). FREQUENCY OF AMBULANCE CLIPS VISITS TO CHILDREN POPULATION BY THE EXAMPLE OF FERGHANA REGION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 6(4), 8-12.
14. Aleksandrovna, A. Y. (2024). Urinary Tract Infection in Children. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(5), 399-403.
15. Ахмедова, Е. А. (2024). ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД В ВЫБОРЕ ИНГАЛЯТОРА: ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 71-72.
16. Ахмедова, Е. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ АЭРОЗОЛЬНОЙ МЕДИЦИНЫ: ВЫБОР ИНГАЛЯЦИОННОГО УСТРОЙСТВА. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 54-57.
17. Ахмедова, Е. А. (2024). ВАКЦИНАЦИЯ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ПРОФИЛАКТИКИ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ, АССОЦИИРОВАННЫХ С ВИРУСОМ ПАПИЛЛОМЫ ЧЕЛОВЕКА. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 58-60.
18. Асранкулова, Д. Б., & Саттаралиева, Х. Б. (2023). ЗАВИСИМОСТЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛЕПТИНА ОТ СТЕПЕНИ И ТИПА ОЖИРЕНИЯ У ПАЦИЕНТОК С СИНДРОМОМ ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯИЧНИКОВ. "RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ, 9(1).
19. Asrankulova, D. B., & qizi Sattaraliyeva, H. B. (2024). POLIKISTOZ TUXUMDONLAR SINDROMIDA BEMORLARNING GORMONAL VA BIOKIMYOVIY HOLATIGA FARMAKOTERAPIYANING TA'SIRI. Журнал гуманитарных и естественных наук, (11 [2]), 67-70.
20. Асранкулова, Д. Б., & Саттаралиева, Х. Б. (2023). ОСОБЕННОСТИ ЛИПИДНОГО ОБМЕНА У ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯИЧНИКОВ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC

RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

21. Саттаралиева, Х. Б. (2022). МЕТАБОЛИЧЕСКИХ НАРУШЕНИЙ У ДЕВОЧЕК ПОДРОСТКОВ СИНДРОМ ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯИЧНИКОВ. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 433-434.
22. Ахмедова, Н. М., & Саттаралиева, Х. Б. (2021). ОСОБЕННОСТИ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ. Re-health journal, (2 (10)), 33-37.
23. Каландарова, М. Х. (2024). ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПИТАНИЯ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(1-1), 235-240.
24. Khodzhiakbarovna, K. M. (2023). IMPORTANCE OF FOLK MEDICINE IN THE TREATMENT OF DISEASES. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(1), 1-5.
25. Kamolidinovich, X. D. (2023). Methods for Diagnosing Ureterolithiasis and its Complications in Ct Scans. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 2(12), 90-93.
26. Davron, X. (2023). Diagnostic Possibilities of Ultrasound in Polycystosis of the Kidney. Eurasian Medical Research Periodical, 20, 43-47.
27. Xojiraxmatov, D. K. (2023). THE IMPORTANCE OF COMPUTED TOMOGRAPHY IN THE DIAGNOSIS OF URETEROLITHIASIS AND ITS COMPLICATIONS. Procedia of Engineering and Medical Sciences, 7(12), 31-34.
28. Kamoldinovich, X. D. (2024). INTRAVENOUS ADMINISTRATION OF CONTRAST AGENTS AND ITS CHARACTERISTICS. Miasto Przyszłości, 48, 119-131.
29. Kamoldinovich, X. D. (2024, May). MODERN CONTRAST AGENTS IN MEDICINE. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 3, No. 5, pp. 132-144).

30. Kamoldinovich, X. D. (2024, May). ULTRASOUND LEVELING AND ITS ADVANTAGES. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 5, pp. 59-64).
31. Shukhratjon, S. E. (2023). UROLITHIASIS DISEASE. World Bulletin of Public Health, 27, 35-36.
32. Tohirbek To'lqinjon o'g, S. (2024). Successful testicular sperm extraction in an infertile man with non-obstructive azoospermia and hypergonadotropic hypogonadism presenting with bilateral atrophic testis: a case report. Miasto Przyszłości, 48, 186-188.
33. Uzbekistan, O. F. To verify Questionnaire of the "Uzbek Index of Premature Ejaculation".
34. Иргашева, М. Д. (2024). ОСОБЕННОСТИ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ. PEDAGOG, 7(11), 250-254.
35. Уразалиева, И. Р., & Иргашева, М. Д. (2021). ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТЕПЕНИ ИНФОРМИРОВАННОСТИ ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ О ПРОГРАММЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. Интернаука, (2-1), 50-51.
36. Kamalovich, S. I. (2024). Congenital Esophageal Malformations in Children, Symptoms, Diagnosis and Treatment. Miasto Przyszłości, 53, 1241-1243.
37. Болтабаев, М. У. (2023). КОРОНАВИРУС (COVID-19) ХАМРОҲ КАСАЛЛИК БИЛАН КЕЧГАНДА КАСАЛЛИҚДАН КЕЙИНГИ РЕАБЛИТАЦИЯ ДАВРИДА АНИҚЛАНАДИГАН ЎЗГАРИШЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЧОРАЛАРИ. Scientific Impulse, 2(13), 178-182.
38. Mukhtarzhanovna, I. G. (2024, May). Development of Principles of Study and Treatment of Vaginal Dysbiosis During Pregnancy. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (pp. 112-115).
39. Mukhtorjonovna, I. G. (2024). Modern Surgical Methods of Placental Aggregation. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(5), 412-416.

- 40.Husanboy, U. (2024). ACUTE HEMORRHAGIC CYSTITIS DISEASE IN CHILDREN AND ITS DEVELOPMENT IN THE CHILD'S BODY. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 88-94).
- 41.Худайназарова, С. Р., Курьязова, Ш. М., & Охунова, М. Ж. (2023). ОСОБЕННОСТИ БРОНХООБСТРУКТИВНОГО СИНДРОМА ПРИ ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. Interpretation and researches, 1(6).
- 42.Khasanboeva, N. A. (2023). VITAMIN B12 DEFICIENCY AND DRUGS USED IN ITS TREATMENT. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(10), 52-59.
- 43.Khasanboeva, N. A. (2023). Fees in Folk and Modern Medicine. The Peerian Journal, 14, 14-17.
- 44.Khasanboeva, N. A. (2023). MEDICINAL PLANTS OF THE FERGANA REGION. International Journal of Medical Sciences And Clinical Research, 3(02), 1-4.